



**"O'ZBEKİSTON-2030" STRATEGİYASI DOİRASIDA MILLİY VALYUTA BARQARORLIGINI
TA'MINLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**

PhD Shamansurova Zilola Abduvahitovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-5152-3518

z.shamansurova@tsue.uz

O'rınboyev Ulug'bek Otabekovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-0723-7097

u.orinboyev@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada "O'zbekiston - 2030" strategiyasini tashkil etuvchi huquqiy jihatdan belgilangan maqsadlar majmui bayon etilgan. Bu maqsadlar qatoriga milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, mamlakat aholisi daromadlarini oshirish, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish orqali mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash, eksport hajmini oshirish, import qilinadigan tovarlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash; inflyatsiyaning o'rtacha darajasini saqlab qolish, xalqimiz turmush darajasini oshirish, mamlakatimizni "o'rtacha daromaddan yuqori" davlatlar qatoriga kiritish kabilalar kiradi.

Bu strategiya oldin qabul qilingan strategiyalardan farqli o'laroq uzoq muddatga qabul qilinganligi va unda erishilishi kutilayotgan maqsadlarga hozirgi kunda qilinayotgan islohotlar chambarchas bog'liqligi va mamlakatimiz iqtisodiyoti yildan yilga o'sib borayotganini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: milliy valyuta, eksport, import, pul, inflyatsiya, pul – kredit siyosati, investitsiya, chet el valyutasi, pul massasi.

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ВАЛЮТЫ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ "УЗБЕКИСТАН-2030"**

Шамансурова Зилола Абдувахитовна

Ташкентский государственный экономический университет

Уринбоев Улугбек Отабекович

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В этой статье мы обеспечиваем стабильность национальной валюты в экономике нашей страны, увеличиваем доходы населения нашей страны, обеспечиваем конкурентоспособность продукции, производимой в нашей стране, путем поэтапного перехода к рынку. Экономика, увеличение объемов экспортта, локализация производства импортных товаров, снижение уровня инфляции Стратегия «Узбекистан - 2030» представляет собой комплекс законодательно определенных целей, которые необходимо достичь, таких как поддержание того же стандарта, повышение стандарта жизни нашего населения, и включение нашей страны в ряды «стран с доходом выше среднего».

Мы видим, что эта стратегия, в отличие от ранее принятых стратегий, была принята на длительный срок и что нынешние реформы тесно связаны с целями, которые предполагается в ней достичь, а экономика нашей страны растет из года в год.

Ключевые слова: национальная валюта, экспорт, импорт, деньги, инфляция, денежно-кредитная политика, инвестиции, иностранная валюта, денежная масса.

PRIORITY DIRECTIONS FOR ENSURING NATIONAL CURRENCY STABILITY WITHIN THE FRAMEWORK OF THE "UZBEKISTAN-2030" STRATEGY

Shamansurova Zilola Abduvahitovna
Tashkent State University of Economics
Urinboyev Ulugbek Otabekovich
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article outlines the set of legally-defined goals that constitute the "Uzbekistan - 2030" strategy. These goals include ensuring the stability of the national currency, increasing the income of the country's population, ensuring the competitiveness of products manufactured within the country through a gradual transition to a market economy, increasing the volume of exports, localizing the production of imported goods, maintaining a moderate level of inflation, improving the living standards of our people, and placing our country among the "above-average income" states.

Unlike previously adopted strategies, this strategy has been adopted for the long term, and we can see that the current reforms are closely linked to the expected goals, as well as the growing year-on-year development of our country's economy.

Keywords: national currency, exports, imports, money, inflation, monetary policy, investment, foreign currency, money supply.

Kirish.

Dunyo bo'ylab hozirgi kunda iqtisodiy o'shishlar pasayotgan bir davrda Mamlakatimiz iqtisodiyoti yildan yilga oshib borayabdi. Bu iqtisodiyotimizning o'sishining asosiy sabablaridan biri bo'lib albatta Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning to'g'ri tashkil qilinganligi, boshqaruv tizimi samarali boshqarilayotganligi, Mamlakatimiz hududidda iqtisodiy o'sish uchun qulay shart – sharoitlar yaratilayotganlini ko'rishimiz mumkin. Lekin shuni esdan chiqarmasligimiz kerak:

Mamlakat hududida har qanday islohotlarni o'tkazishdan oldin bu islohotlarni huquqiy jihatdan mustahkamlab olish lozim. Huquqiy tarafdan mustahkam bo'lмаган islohotlarning samaradorlik ko'rsatkichlari juda past darajada bo'ladi. Iqtisodiyotimizda islohotlar Mamlakatimiz mustqaillikka erishgach yillar mobaynida qilinib kelinmoqda bu albatta iqtisodiyotimizning hozirgi darajada bo'lishining asosiy sabablardan biridir. Oxirgi yillarda qilinayotgan islohotlar Mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasining qabul qilinishi uchun ham dastlab bu strategiya uchun zamin yaratildi. Dastlab 2017 - yil 5 - sentabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora – tadbirlar to'g'risida" gi PF - 5177 – sonli Prezident Farmoni qabul qilindi (Farmon, 2017). Bu Farmonga ko'ra valyuta bozorini yanada liberallashtirish va aholiga qulay shart sharoitlar yaratish ustuvor vazifa sifatida qabul qilindi. Endilikda chet el valyutasining milliy valyutamizga bo'lgan kursini bozor instrumentlariga asoslangan holda belgilanish chora – tadbirlari ishlab chiqildi. Bu esa o'z o'zidan Markaziy bank operatsiyalarini bozor sharoitiga moslashtirish va huquqiy tarafdan Markaziy bank mustaqil bo'lishiga olib keldi. 11 – noyabr 2019 – yidal qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida" gi O'RQ – 582 – sonli Qonun esa Markaziy bankning bozor munosabatlariga kirishi va milliy valyuta barqarorligiga erishishning dastlabki qadamlaridan biri bo'ldi (Qonun, 2019). Qonunning asosiy maqsadi sifatida Markaziy bankning faoliyatini tartibga solish, mamlakatdagi pul – kredit siyosatini amalga oshirish, nazorat qiluvchi, mamlakat hududida narxlarning, bank tizimining, to'lov tizimlari ishslashining barqarorligini ta'minlash qabul qilindi. Iqtisodiyotimizda inflatsiyani jilovlash maqsadida 2019 – yil 19 – noyabrda "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma – bosqich o'tish orqali pul – kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" gi 5877 – sonli Prezident Farmoni qabul qilindi (Farmon, 2019). Bu Farmonning

mazmuni va mamlakatimiz iqtisodiyotida inflatsion targetlash rejimining joriy qilinishi haqida Dotsent Shomansurova va O'rinboyevning (2023) " Milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda inflatsion targetlash usulining ahamiyati va o'rni" mavzusidagi maqolasida o'z izlanishlarini olib borishgan va o'zlarining xulosalarini berib o'tishgan. Bu huquqiy – normativ hujjalarning qabul qilinishi va iqtisodiy islohotlarning samarali olib borilganligi natijasida 2023 – yil 11 – sentabr kuni Prezidentimizning PF – 158 – sonli " O'zbekiston – 2030 " strategiyasi to'g'risida Farmoni qabul qilindi (Farmon, 2023). Farmonda mamlakatimizda 100 ta maqsadni amalgalashish va 2030 – yilga borib Mamlakatimiz iqtisodiyotining ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Bu 100 ta mqasad Yurtimizning ijtimoiy hayotidan tortib mudofa tizimini mustahkamlashgacha bo'lgan soxalarni qabrab oldi. Bizning izlanishlarimiz asosan 2 – yo'naliш " Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi faravonligini ta'minlash" yo'naliшida olib boriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Mamlakatda iqtisodiyotning rivojlanishi bu albatta ko'plab omillarga aloqador bo'ladi. Bu omillar o'z navbatida iqtisodchi olimlarning izlanishlari natijasida yuzaga kelgan nazariyalar orqali tartibga solish uchun hukumat tomonidan eng muqobil nazariyalar tanlanib ular ustida izlanishlar olib boriladi. Bu borada Fridman va Keyns nazarialarining o'rni beqiyosdir. Fridman nazariyasiga ko'ra: – " mamlakat iqtisodiyotida inflatsiya har doim va har yerda monetar hodisa bo'lib hisoblanib, inflatsiyaning asosiy omili sifatida muomilada pul massasining ortishi, pul massasini nazorat qilish orqali narxlar barqarorligiga erishish, valyuta kursini bozor mexanizmlari orqali o'zini o'zi tartibga solish " kabi nazariyalarni ilgari surgan (CFI Team, 2022). Ingliz iqtisodchisi Keyns nazariyasiga ko'ra: – " hukumat xarajatlarni ko'paytirish va soliqlarni kamaytirish orqali muntazam ravishda iqtisodiyotni qo'llab quvvatlashda foal bo'lishi, xarajatlar ko'payishi natijasida taqchillik yuzaga kelsa ham, aholining bandlik darajasini oshirish kerak va bu normal holat sifatida qaralgan " (Corporate Finance Institute, n.d.). Iqtisodch olim Svensson (2010) nazariyasiga ko'ra: " iqtisodiyotda inflatsion targetlash rejimini qo'llash orqali foiz stavkalarini boshqarish, pul massasini nazorat qilish, valyuta kursini tartibga solish, mamlakat iqtisodiyotining qisqa va o'rta muddatli prognozlashtirish, monetar siyosat samaradorligini oshirish kabi omillarni samarali tashkil qilish va iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini " keltirib o'tgan. "O'zbekiston – 2030 " strategiyasi ham olimlarning izlanishlari va nazariyalar bilan jahon mamlakatlari tajribalari o'rganilib, umumlashtirilib bu rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilgan. "O'zbekiston – 2030 " strategiyasi bu Mamlakatimizning 2030 – yilgacha bo'lgan rivojlanish yo'li. Bu strategiyani qabul qilinishidan oldin yuqorida ko'rib o'tganimizdek dastlab iqtisodiyotimizda bozor mexanizmlariga o'tish, valyuta bozorini tartibga solish, Markaziy bankning mustaqilligini ta'minlash, inflatsiyani jilovlash uchun jahon tajribalaridan kelib chiqib inflatsion targetlash rejimini joriy qilish, chet el mamlakatlari bilan o'zaro savdo – sotiq munosabatlarini yaxshilash, eksport qiluvchi korxonalar uchun qulayliklar yaratish, import tovarlarini o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va mahalliylashtirish orqali mamlakatimizning ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholining bandligini ta'minlash, chet el investitsiyalarini kirib kelishini jadallashtirish va qulay shart sharoitlar yaratish va boshqa ko'plab islohotlar o'tkazilishi natijasida bu strategiyani qabul qilishimiz uchun shart sharoitlar yaratilgan va islohotlarni yangi pag'onaga olib chiqish va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish uchun bu strategiya qabul qilingan. Mamlakatimiz iqtisodiyotida inflatsion targetlash rejimiga bosqichma bosqich o'tish orqali iqtisodiyotimizda inflatsiya miqdorini jilovlash orqali milliy valyuta barqarorligini ta'minlash asosiy maqsad qilib olingen, shunga ko'ra: Markaziy bank tomonidan Inflatsion targetlash natijasida ko'zlangan maqsadga erishish uchun muqobil bo'lgan pul – kredit siyosatini yuritmoqda. Bu yilgi yillik inflatsiya miqdori Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra 10,5 foiz miqdorida bo'lishi kutilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ko'zlangan maqsadga ko'ra 2030 – yilga borib iqtisodiyotimizda yillik inflatsiya miqdori 5 – 6 foiz tashkil qilishi ko'zda tutilgan. 2024 – yil 20 – noyabr bo'lib o'tgan Mamlakatimiz Prezidenti

ishtirokidagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida Yurtimiz iqtisodiyoti ilk bor 100 milliard dollardan oshganligi, aholi jon boshiga 3 ming dollarga yetishi kutilmoqdaligi 2018 yilda bu ko'rsatkich 1 600 dollar bo'lganligi, Juhon banki tomonidan Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan mamlakatlarning 3 taligiga kiritilganligi, yurtimizda kambag'allik darajasi songi 4 yilda 23 foizdan 11 foizga tushganligi, Yurtimizning eksport salohiyati qariyb 2 martaga oshib 25 millard dollardan, oltin valyuta zaxiramiz esa 40 milliard dollardan oshganligi, xorijiy investitsiyalar miqdori 6 karraga ko'payib buning natijasida 1,5 million ta yangi ish o'rinnari yaratilganligi, Yalpi ichki mahsulotimiz miqdorida investitsiyalar miqdori 30 foiz darajasida ta'minlangani ta'kidlanib o'tildi (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, 2025). Bu erishilayotgan natijalardan ko'rishimiz mumkinki "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ko'zlangan maqsadlarga birin ketin maqsadimizdan og'ishmagan holatda mamlakatimiz iqtisodiyotida muntazam ravishda islohotlar qilinayotganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston - 2030" strategiyasi haqida:

"O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun rivojlanish strategiyasi " yurt ravnaqining bosh yo'naliшlarini belgilab beradi. Uning asosiy maqsadi - odamlarning tinchligi, osoyishtaligi va farovonligini ta'minlash, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, mamlakatni barqaror demokratik rivojlanish yo'lidan izchil olib borish, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashdan iborat. Strategiyada ularning farovon, barqaror va xavfsiz hayot kechirishi, huquqlari va erkinliklarini kafolatlanadigan shart-sharoitlar yaratish yo'naliшidagi chora-tadbirlar nazarda tutilgan " (Claude.ai, 2025) .

Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy izlanish jarayonida tahlil va yondashuv, o'zaro solishtirish, mantiqiy va o'zaro tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, baxolash va prognozlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan keng foydalanilgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Izlanishlarimiz natijasida shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mazkur strategiya Mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi pag'naga olib chiqish mumkin. Buning uchun albatta Strategiyada ko'zda tutilgan islohotlarning o'tkazilishi va aniq hisob kitoblarga asoslangan holda, chet elda ro'y berayotgan voqeа hodisalarini inobatga olib islohotlar samarali tashkil qilinishi kerak. " O'zbekiston – 2030 " strategiyasida 5 ta yo'naliш bo'yicha islohotlar olib boriladi. Bular quyidagilar:

- Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharitlar yaratish
- Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi faravonligini ta'minlash
- Suv resurslarini tejash va atrof – muhitni muhofaza qilish
- Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish
- Xavfsiz va tinchliksevar davlat tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish

Mavzumiz miliyi valyuta barqarorligini ta'minlash bo'lgani uchun izlanishlarimiz asosan iqtisodiy sohaga yo'naltirilgan. Demak 2030 – yilga borib mamlakatimizda yillik inflatsiyani 5 – 6 foiz darajasida ta'minlash, pul – kredit tizimini, fizkal va tashqi savdo siyosatini o'zaro integratsiya qilish, Tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaratish, qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish orqali investitsion muhitning jozibadorligini oshirish, eksport mahsulotlarini ko'paytirish, yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga, aholining jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming dollarga yetkazish kabi iqtisodiy islohotlar o'tkazish ko'zda tutilgan. Quyidagi jadvalda Mamlakatimizda 2020 – yil yanvar oyidan boshlab inflatsiya ko'rsatkichlari bilan tanishishingiz mumkin. Ko'rsatkichlar Markaziy bankning rasmiy saytidan olingan.

INFLYATSIYA DARAJASI




1-rasm. Markaziy bank tomonidan taqdim qilingan inflatsiya ko'rsatkichlari
(Cbu.uz, 2024)

1-rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki 2020 – yil I choragida inflatsiya darajasi 14,3 foizni tashkil qilganini va 2024 – yil sentyabr oyi inflatsiya ko'rsatkichi 10,5 foizni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin. Bu bir qarashda yaxshi ko'rsatkichdek ko'rindi, lekin 2024 – yil I choragida 8 foizdan sal ko'proq bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Inflatsiya darajasi har doim Mamlakatning iqtisodiy holatiga qarab o'zgarib turuvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Sentyabr oyida yoqilg'I mahsulotlarining narxida oshish kuzatilgan. Xususan, Propan narxi 52,1 foiz, metan narxi 35,8 foiz va shuningdek temir yo'l chiptalari narxi 45,5 foiz, tovarlar o'rtacha 5 foizga, xizmatlar narxi 28,7 foizga oshgan (Muxtorova, 2024). Bu oyga kelib inflatsiya darajasining oshishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida eksport hajmining qisqarganini ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Quyidagi jadval ma'lumotlari bilan tanishishingiz mumkin.

1-jadval
O'zbekiston 2022-yil, 2023-yil yanvar va avgust oylarida Markaziy Osiyo davlatlariga eksport hajmi (mln dollar) (kun.uz, 2024)

Davlatlar	2022-yil	2023-yil	2023-yil
Qozog'iston	882,1	950,6	872,5
Qirg'iziston	601,6	491,5	365,8
Tojikiston	308,7	289,1	329,6
Turkmaniston	147,3	118,4	78,3

Jadvaldan shuni ko'rishimiz mumkinki, sentyabr oyining boshiga eksport hajmining Markaziy Osiyo davlatlariga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Barcha qo'shni mamlakatlarimizga yil boshiga nisbatan kam eksport mahsulot qilingan. Eksport hajmining kamayishini Investitsiya va Sanoat vazirligi ma'lumotiga ko'ra bu eksport diversifikatsiyasi bilan bog'liqligini aytgan ya'ni xarid qobilyati yuqori bo'lgan mamlakatlarga eksport yo'naltirilayotganlini aytgan. Lekin bu ko'rsatkichlar 2022 – yil eksport hajmidan ham tushib ketishi albatta salbiy ko'rsatkich hisoblanadi. Inflatsiyaga ta'sir sifatida yana bir ko'rsatkich bu muomiladagi pul massasining ko'payishi ham inflatsiya ko'rsatkichining oshishiga olib keladi.



2-rasm. Markaziy bank tomonidan pul agregatlari to'g'risidagi ma'lumot (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025)

Albatta iqtisodiyot rivojlanar ekan muomilada pul ko'payishi tabiiy hol. Lekin muomiladagi pulning ko'payishi narxlar o'sih davrida yuz bersa bu albatta inflatsiyaning oshishiga, iste'mol narxlarining ko'tarilishiga va aholining tumush darajasining pasayishiga olib keladi. Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki har oyda pul agregatlari o'sib borayotgani, bunga mutanosib ravishda naqd pullar ham o'sayotganini ko'rishimiz mumkin. Markaziy bank ma'lumotlariga tayanadigan bo'sak yil yakunida Yalpi ichki mahsulotning real o'sishi 6 – 6,5 foiz, yillik inflatsiya 9,5 foiz bo'lishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Ilmiy izlanishlarimizdan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda mamlakatimizing iqtisodiy o'sish suratlari dunyoda bo'layotgan siyosiy vaziyatlar davrida boshqa rivojlangan davlatlarga qaraganda ancha barqaror o'sish suratlarini qayd etmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ko'zda tutilgan maqsadlarga samarali iqtisodiy islohotlar orqali mamlakatimizda bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish orqali ko'zda tutilgan natijalarga bemalol erisha oladigan iqtisodiyotga ega mamlakatdir. Yurtimiz iqtisodiyoti 2025 – yilda Yalpi ichki mahsulot 1 kvadrillion 630 trillion so'mdan oshishi, Yaimning o'sishi esa mos ravishda 2025 – yilda 6 foiz, 2026 – yilda 6,3 foiz va keyingi yilda 6,3 foiz bo'lishi, inflatsiyaning yillik ko'rsatkichi 2025 – yilda 7 foiz. 2026 – yilda 5 – 6 foiz va keyingi yildan 5 foiz, mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan investitsiyalar miqdori ham oshishi kutilmoqda. Markaziy bank raisi Mamarizo Nurmurodov bildirganidek: " keyingi yillarda

mamlakatimizda yoqilg'i resurslarining oshishi yuqoridagi ko'rsatkichlarning hisob kitobiga olingen va biz buning uchun zarur shart sharoitlar yaratgan holda bu ko'rsatkichlarga erishishni maqsad qilganmiz" (kun.uz, 2024). Demak kuchli iqtisodiy islohotlar orqali mamlakatimizning iqtisodiyotini 2030 – yilga qadar “ daromadi yuqori bo'lgan davlatlar ” qatoriga kirita olamiz.

Adabiyotlar/ Литерапия/ Reference.

Cbu.uz. (2024). *Yillik, yil boshidan va oylik inflyatsiya - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.* [online] Available at: <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators/?print=Y>

CFI Team (2022). *Friedman Doctrine.* [online] Corporate Finance Institute. Available at: <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/equities/friedman-doctrine/>.

Claude.ai. (2025). *Claude.* [online] Available at: <https://claude.ai/chat/cd338c7d-7c67-4453-bb7d-e87f45db4e32>

Corporate Finance Institute. (n.d.). *John Maynard Keynes.* [online] Available at: <https://corporatefinanceinstitute.com/resources/economics/john-maynard-keynes/>.

Farmon (2017) "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora – tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 5-sentyabrdagi PF-5177-sonli Farmon.

Farmon (2019) "Inflatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul- kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida" PF-5877 sonli Farmon.

Farmon (2023) "O'zbekiston – 2030" 2023 – yil 11 – sentabrdagi PF – 158 – sonli Farmon

kun.uz (2024). 'Валюта курсининг 1 фоизга қадрсизланиши инфляцияга 0,3-0,4 фоиз таъсир қўрсатиши мумкин' - МБ раиси. [online] Kun.uz. Available at: <https://kun.uz/kr/58916747>

kun.uz (2024). Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатларига экспортни кескин қисқарди. Нега? [online] Kun.uz. Available at: <https://kun.uz/kr/34036412>

Lars E.O. Svensson (2010) " Inflation targeting " Sveriges Riksbank, Stockholm University, CEPR and NBER Journal of Monetary Economics, October . 66 b.

Mirziyoyev SH.M. (2021) " Yangi O'zbekiston Strategiyasi " Toshkent, O'zbekiston, 464 b.

Muxtorova H. (2024). O'zbekistonda yil davomida propan narxi 52,1 foizga, metan esa 35,8 foizga oshdi. [online] Kursiv Media Uzbekistan. Available at: <https://uz.kursiv.media/uz/2024-10-01/ozbekistonda-istemol-narxlari-yil-davomida-105-foizga-oshdi/>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Pul agregatlari. [online] Available at: <https://cbu.uz/oz/statistics/dks/847195/>

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi. (2025). Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisi. [online] Available at: <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/28081>

Qonun (2019)" O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida " 2019 – yilda 11-noyabr O'RQ-582-sonli Qonun.

Shomansurova Z. va O'rinooyev U. (2023) " Milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda inflatsion targetlash usulining ahamiyati va o'rni " maqola.